

PSIXOLOGIK TASVIR – BADIYLIKNING MUHIM MEZONI (ABDUQAYUM YO‘LDOSH ASARLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10022557>

Rushana Zaripova

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

rushanazaripova73@gmail.com

Annotatsiya

Badiiy so‘z hodisasi insonlar jamiyatiga aynan ularning o‘zlarini o‘zlariga tavsiflash, ta’riflash, tasvirlash, ko‘rsatish orqali ta’sirlantirish san’atidir. Bu o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, ijtimoiy- tarixiy, maishiy-biografik, individual-psixologik hodisa va holatlarni kuzatish, ulardan ta’sirlanish, shu ta’sir doirasidan chiqmagan holda yoki shu holatga tushib tasvirlash, bayon etish, pirovard natijada boshqalarni ham ta’sirlantirishi kabi murakkab bosqichlardan tashkil topadi. Ushbu maqolada ham badiiy psixologizmning yuzaga kelish jarayoni va ularning tadqiqi Abduqayum Yo‘ldosh asarlari misolida atroflicha yoritiladi.

Kalit so‘zlar

obraz, badiiyat, psixologizm, psixologik tasvir, uslub, mahorat.

Аннотация

Феномен художественного слова – это искусство воздействия на общество людей именно путем их описания, описания, описания и показа. Это самостоятельный сложный процесс, наблюдающий общественно-исторические, бытовой-биографические, индивидуально-психологические события и ситуации, находящийся под их влиянием, описывающий, описывающий и в конечном итоге состоящий из сложных этапов, затрагивающих и других. В данной статье процесс возникновения художественного психологизма и его исследование подробно освещается на примере творчества Абдукаюма Юлдоша.

Ключевые слова

образ, художественность, психологизм, психологический образ, стиль, мастерство.

Annotation

The phenomenon of the artistic word is the art of influencing the society of people precisely by describing, describing, describing, and showing them. It is a complex process of

its own, observing social-historical, household-biographical, individual-psychological events and situations, being influenced by them, describing, describing, and ultimately consists of complex stages that affect others as well. In this article, the process of the emergence of artistic psychologism and its research is covered in detail using the example of the works of Abduqayum Yoldosh.

Key words

image, artistry, psychologism, psychological image, style, skill

Juda qiyin, favqulodda holatlarda odam ruhiyatiga xos asl jihatlar yaqqolroq ko'rinadi. «Har bir tashqi zarba ta'sirida xarakterlarning yangi-yangi qirralari namoyon bo'ladi. Tuyg'ular tashqi dunyo taassurotlariga emotsional reaksiya sifatida namoyon bo'ladi»⁷³, deb yozadi adabiyotshunos olim M.Abdurahmonova. Darhaqiqat, kishi qaltis vaziyatlarda aslidagiday – turli “qoliplar” ga, “shakllar” ga kirmay, moslashmay, boricha ko'rinadi. Sababi shoshilinch holatlarda kishining o'ylab o'tirishga, mulohaza yuritishga, fikrlarini taroziga solib o'lchab ko'rishga imkoni bo'lmaydi. Shu boisko'ngliga kelganiday, tabiati ko'targaniday ish tutadi. Ko'ngil esa odamning boshqalardan yashirin sirlari saqlanguvchi bir xazina sifatida egasi to'g'risida “aniq ma'lumotlar beradi”.

Yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshev “Intiqom” hikoyasida mana shunday holatga tushgan kishilar tasvirini yaratadi. Mo'minboy ismiga monand mo'mingina emas, balki juda makkor, pixini yorgan, suvdan quruq chiqib keta oladigan darajada ustasi farang, o'zining xudbinona maqsadi yo'lida farzandlari bilan qasam ichadigan va bu qasami bolasiga urib yettinchi qavatdan tushib ketganda ham “o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas” qabilidagi kimsa qiyofasida tasvirlanadi.

Abduqayum Yo'ldoshning ushbu hikoyasida o'z manfaati yo'lida har qanday pastkashlikka qo'l uruvchi kishilar tasviri yaxshi chizilgan. Ijodkor hikoyadagi obrazlar ruhiyatini ochib berish uchun bir qancha vositalardan foydalanadi. Jumladan, portretidan o'rinli foydalanadi.

Bir so'z bilan aytganda badiiy asar qahramonlarni aniq tasavvur qilishga yordam beradigan tasvir vositalaridan biri – bu ularning portretidir. Portret adabiy qahramonning tashqi qiyofasi, ko'rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o'zini tutishi va hokozolarining badiiy asarlardagi tasviri bo'lib, ijodkor portret yaratishda yuz, ko'z, qosh, lab, burun kabi a'zolari tasvirlash bilan cheklanmay, gavda, qo'l, bosh harakatlari manerasi, gapirish ohangi va sur'ati, kulishi, yig'lashi (ushbu holatlardagi mimikasi) kabi inson ruhiyati bilan bog'liq faoliyatlarga ham

⁷³ Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. – Toshkent: «O'zbekiston», 1977, 9-bet.

katta e'tibor qaratadi.⁷⁴

Shuningdek, badiiy obraz portretining ikki qirrasini mavjud: obrazning tashqi qiyofasi va uning ichki individual-psixologik qiyofasi. Bu xil tasnif, albatta, shartli bo'lib, har ikki holatda ham yozuvchi qahramonning ruhiyati, xarakteriga kirib borishga harakat qiladi. Portret ijodkorning inson dunyosini qanchalik chuqur bilishini namoyon etish bilan birga o'quvchining ham inson tabiati to'g'risidagi fikrlarini kengaytiradi, qahramonlarning dardini tushunishi va his qilishiga yordam beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, ijodkorning badiiy mahoratini uning adabiy qahramon portretini tasvirlashiga qarab ham belgilasa bo'ladi. Yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshning barcha qissa va hikoyalarida obrazlar xarakterini yoritishda portretidan o'rinli foydalanilgan deyish mumkin.

Biz yuqorida eslab o'tganimiz "Intiqom" hikoyasida Mo'minboy portreti asar boshidanoq "o'lguday pishiq-puxta, buning ustiga mug'ombir, uyiga borib qolsangiz ichimlikning zarari haqida ezmalanib gapiraveradigan, bu yerda (korxonada) esa, tekinligi uchun, hissasini miq etmay yutaveradigan, qolgan-qutgan gazak-pazaklarniyam cho'ntagiga urib ketishdan istihola qilmaydigan..."⁷⁵ deb tasvirlanadiki, bundan Mo'minboyni o'ta ketgan ziqna, o'zi uchun nihoyatda puxta, qulay imkoniyat bo'lishi bilan o'z foydasiga ish qilib qoladigan kishi kitobxon tasavvurida paydo bo'ladi. Bu esa asar davomida bu o'z isbotini topadi. Hikoyada tasvirlanishicha ishdan charchab chiqqan xodimlar kechga korxonaning o'zida yig'ilishadi. Korxonada chilangari Ibroyim aka ombordan olib chiqilgan toza spirtidan ichib stol ustiga boshini qo'yib, uxlab qoladi. Shunda bosh hisobchi Mo'minboy hazillashmoqchi bo'lib, barcha chiroqlarni o'chirib, Ibroyim akani uyg'otadi. Qoronng'ulikda uyg'ongan Ibroyim aka ko'zlari ko'rmayotganligini aytadi. Voqealar jiddiy tus olayotganini ko'rib, qo'rqib ketgan Mo'minboy chiroqlarni yoqib, Ibroyim akaga hazillashmoqchi bo'lganligini aytsa-da, lekin Ibroyim akani ko'zlari rostdan ham ko'rmaydi. Ish boshqaruvchi (hikoya qiluvchi shaxs) nima qilishini bilmay turganida, hisobchi Mo'minboy "hammasini yes qilaman" deb sekin voqea joyidan chiqib ketadi. Bu ish orqasidan qo'zg'atilgan jinoiy ishda aybdor deb ish boshqaruvchi topiladi va jazolanadi. Chunki Mo'minboy bu yerdan ancha avval chiqib ketgani, voqea joyida ish boshqaruvchi bilan Ibroyim aka qolganligini tergovga hisob beradi. Lekin, ish boshqaruvchinning yoniga kelganida tilyog'lamalik bilan ish tutadi. Bu holatni muallif quyidagicha tasvirlaydi:

⁷⁴ Салаев Ф., Курбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. 185 бет.

⁷⁵ А. Yo'ldoshev. "Qaydasan, mo'jiza...". Qissa va hikoyalar. – Toshkent: "G'afur G'ulom"–2019-y. 142-b.

“Ana o’shanda... hisobchim anchagina pixini yorgan, dog’uli, tullak ekanini bilib oldim. Sud bo’lguncha oldimga yashirincha kelardi-da, ko’z yoshlarini oqizib qayta-qayta minnatdorchilik bildirardi, hali umid borligini bularning barini tekislash uchun yelib-yugurayotganini aytardi, o’lgunicha xizmatda bo’lishga qasam ichardi. Bolalarini o’rtaga qo’yardi...”⁷⁶

Ko’rinib turibdiki, dastlab “suvni loyqalatgan” Mo’minboy ayblarini yashirish uchun qo’lidan kelgan hamma ishga qo’l uradi, o’zini jabrdiyda qilib ko’rsatadi. Shu o’rinda aytib o’tish joiz, Abduqayum Yo’ldoshning ushbu hikoyasida qarg’ish olish, birovlarni norozi qilish yoki haqqiga xiyonat qilishning ayanchli oqibatlari tez orada yuzaga chiqishi tasvirlanadi. Jumaldan, o’zini har ko’yga solib ko’rsatuvchi Mo’minboy bolalarini o’rtaga qo’yib, yolg’on qasam ichishlarining natijasi ham keltirib o’tiladi:

“Intiqom ilinjida ko’zimga qon to’lib yurgan kunlar edi. Bir kuni boshliq ishga kelmadi, hattoki “ushlanib qolib” ham kelmadi. Eshitsam, kenjatoyi yettinchi qavat ayvonidan pastga qulab tushibdi...”⁷⁷

Qanchalar intiqom ilinjida yurgan bo’lmasin, alamzadalik bilan yurgan bo’lmasin, asar qahramoni Mo’minboyning kenjatoyi yettinchi qavatdan tushib ketganligini eshitib, hayot haqiqatlari oldida yana bir bor iqror bo’ladi. Mo’minboyga achinib ham qo’yadi. Shuningdek, ilohiy intiqom shu “uch kunlik dunyoning o’zida ham borligiga” amin bo’ladi. Hikoya qahramoni qalb kechinmalarining ayni holatini yozuvchi mahorat bilan tasvirlaydi:

“Boshimdan sovuq suv quyilganday bo’ldi. Beixtiyor Mo’minboy akaning bir yil burun menga yalinib-yolvorganini, farzandlarini o’rtaga tikib ichgan qasamlarini esladim... So’qir, soqov Ibroyim aka yodimga tushdi. Nahot, nahot ilohiy intiqom deganlari shu uch kunlik dunyoning o’zida ham bor bo’lsa? Nahot gunoh jazosiz qolmasa? Nahot...”⁷⁸

Hikoyada faqat Mo’minboy emas, Ibroyim akaning taqdiri nega ayanchli kechgani haqida eslatildi. Uning ko’r bo’lib qolishining sababi bor edi. U ham qarg’ish olib, kishilarning qalbini og’ritadi. Farzandlari, nabiralari uchun yelib-yuguradigan mushtdekkina kampir, qaynonasining o’limlikka deb yig’ib qo’ygan pullarini o’g’irlab oladi. Keyin joyiga qaytarib qo’yaman deb o’ylaydi. Qaytarolmaydi. O’z oyog’i bilan yurib turgan kampir, yotib qoladi. Hech kimga bir so’z aytolmaydi. Tez orada qazo qiladi. Kampirni dafn etib kelingach, uning farzandlari, yaqinlari kampir yashagan xonaga yig’ilishadi. Uni yaxshi xotiralar

⁷⁶ A.Yo’ldoshev. “Qaydasan, mo’jiza...”. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: “G’afur G’ulom”–2019-y. 156-b.

⁷⁶ Yuqoridagi asar. 157-b.

⁷⁸ A.Yo’ldoshev. “Qaydasan, mo’jiza...”. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: “G’afur G’ulom”–2019-y. 158-b.

bilan eslashaadi. Shunda Ibroyim akaning ayoli, kampirning qizi yig'i aralash duo qiladi: "Qani, omin! O'sha narsani kim olgan bo'lsa iloyo onamning arvohi ursin, iloyo ko'r bo'lsin, ko'zlari oqib tushsin! Omin, Allohu akbar!..⁷⁹"

Hamma yozuvchi va san'atkorlar o'z idealiga mos ijobiy qahramon yaratish uchun intiladilar, lekin bu jarayon A.Yo'ldoshev ijodida ko'zga tashlanmaydi. Yozuvchi asarlarida boshqalarga o'rnak bo'larlik darajadagi, ijobiy va ideal qahramon darajasidagi obrazlar deyarli uchramaydi. Obrazlarining o'zlariga xos xarakterlaridan kelib chiqadigan kamchiliklari bor. Bu esa asarlarining hayotiyiligini ta'minlagan. Benuqson, ideal insonning yo'qligi barchamizga ma'lum. Adib asarlaridagi aksar obrazlar ruhiy iztiroblar orasida tasvirlanadi. Bu holat ba'zida oshkora, ba'zida ishoraviy tarzda tasvirlanadi.

Yuqorida muallif bekorga "...So'qir, soqov Ibroyim aka yodimga tushdi. Nahot, nahot ilohiy intiqom deganlari shu uch kunlik dunyoning o'zida ham bor bo'lsa?.." deb eslamadi. Chunki, Ibroyim akaning ko'r bo'lib qolishida ham avvalo sababchi o'zi ekanligi eslatiladi. Shu o'rinda muallif tomonidan Ibroyim akaning portreti mohirona tasvirlanganini eslaymiz. Hikoya avvalida Ibroyim akaga "Mudom tishining oqini ko'rsatib yuradigan, hatto, e'tirozini ham, deylik, "maoshning cho'g'i sal pastroqmi, ukajon?" qabilida kulimsirab turib aytadigan chilangarimizni orqavarotdan, ba'zan hatto oldida ham "Dunyodagi eng baxtiyor inson" deb atardik"⁸⁰- deya ta'rif beradi. Boshiga musibat tushib, ko'zlari ko'r bo'lib qolgan Ibroyim aka, o'tmishda qilgan barcha qilmishlarini nadomat bilan eslaydi. Cheksiz afsus chekadi. Uning ayni damdagi ruhiy holatini muallif Ibroyim akaning tilidan shunday tasvirlaydi:

"Qirqini o'tkazib uyga qaytgan kuni... birinchi bor to'yib ovqat yeb uxlab qolibman. Yarim kechasi qop-qorong'u xonada bosinqirab, qop-qora terga botib uyg'onib ketdim. Tushimda... ko'r bo'lib... shu holimda "u yoqqa" boribman. Shu holimda sezibman: mushtdaygina kampir, qaynonam bir chekkada o'tirib, yum-yum yig'layotganmish... Egilib bir iliqroq gap aytay desam, kimdir qornimga zarb bilan tepdi... ichak-chovog'im ag'darilib ketdi, nafas ololmay qoldim... Yorilguday bo'lib turgan qoringa hech tepki yeganmisiz? Men ana o'shanda bilganman... O'shandan beri ko'p ovqat yeyolmayman. Qo'rqaman. Xotinimni xafa qilmaslikka urinaman. Bolalarniyam. O'zimni doim xursand ko'rsataman... Xursand yursam... gunohim ozroq yuviladimi deyman-da... O'zim bo'lsa qo'rqaman... Qarg'ishdan qo'rqaman... Oqshomlari chiroqni o'chirmay uxlayman. Ertalablari turib ko'zimni

⁷⁹ Ko'rsatilgan manba: 152-b

⁸⁰ A.Yo'ldoshev. "Qaydasan, mo'jiza...". Qissa va hikoyalar. – Toshkent: "G'afur G'ulom"–2019-y. 142-b

qayta-qayta ishqalayman. Qochib go'rga borarmidim. Oxiri... Mana..."⁸¹

Muallif Ibroyim akani o'z tilidan iqrorigini so'zlatar ekan, uning psixologik tasvirini o'quvchiga juda aniqlikda ko'rsatib beradi. Shuningdek, kitobxon shuurida ba'zi ehtimoliy fikrlar paydo bo'lishi mumkin. Avvalo, hayotda qilingan har bir harakat, har bir savol u xoh yaxshilik, xoh yomonlik bo'lsin, javobsiz qolmasligi. Ikkinchidan, tashqi qiyofasi kulib turgni bilan, uning ichki olamida kuchli iztirob, alamli xotiralar yotishi, ba'azn kishi o'zini atrofdagilarga hammadan ko'ra baxtli qilib ko'rsatgani bilan, asl haqiqat oldida yolg'iz qolishdan qo'rqadiganlar ruhiyatining tasvirini aynan shu hikoyada ko'ramiz. Chunki, ko'zlari ko'r bo'lib qolganidan so'ng Ibroyim aka uyidan o'z ixtiyori bilan chiqib ketadi va bozor darvozasi yonida tilanchilik qilib o'tiradigan bo'ladi. Muallif Ibroyim akani shunday tasvirilaydi:

"O'zim ko'rdim: Ibroyim aka qo'l cho'zib sadaqa so'ramaydi, ba'zi gadoylarga o'xshab ming'irlab, chayqalgancha bir nimalarni xirgoyi ham qilmaydi. Ibroyim aka o'tiraveradi... o'tiraveradi..."⁸². Bu nima? Qismat sinovi oldida aybiga jimgina iqrorlikmi? Yoki uzoq yillar avval sodir etilgan birgina xatoning badalini to'lashmi? Yo bo'lmasa, haqiqiy sinovdan avval haminqadar gunohlarini yuvishga bo'lga ojizona urinishmi? Biz birgina xato dedik. Balki, Ibroyim akaning bizga noma'lum qanchadan qancha qilmishlari bor-u, ularni hech kimga aytolmasdan, ularning barchasi uchun shu hayotning o'zidayoq badal to'layotgandir?! Ammo, bu tomon kitobxon uchun mavhumlik. Negaki, muallif bu borada so'z ochmaydi. Ammo, Ibroyim akaning shu ko'ygga tushishiga u o'zini aybdor his qiladi. Muallifning o'zi ham ruhiy evrilishlar ichida yashaydi. Bora-bora Ibroyim akadek o'tmishni o'ylagan sari iztirobga tusha boshlaydi. "... go'yo bu tilanchi yoshlik paytlarim ro'y bergan, bugun oshkor bo'lishini sira-sira istamagan allaqanday gunoh ishimning yolg'iz shohididay bozorga kirishga, so'qir gadoy bilan yuzma-yuz bo'lishga yuragim betlamay qoldi. Shundan keyin yo'lni chapga soladigan bo'ldim..."⁸³ –deb izohlaydi. Shu o'rinda rus yozuvchisi Lev Tolstoyning "Tasvirlanayotgan voqea shu darajada asoslangan bo'lishi kerakki, uning boshqacha bo'lishi mumkinligi kitobxonning xayolidan ham o'tmasin" – degan fikrlarini eslab ketamiz. Hikoyadagi voqealar shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, rostdan ham boshqacha bo'lishi kitobxonning xayoliga kelishi qiyin. Ya'nikim, Arastu aytganidek, xarakterlar (hayotiy) haqqoniy bo'lishi kerak⁸⁴.

Asar so'ngida Mo'minning taqdiri nima kechdi, degan savol paydo bo'lishi

⁸¹ Yuqoridagi manba 152-b.

⁸² A.Yo'ldoshev. "Qaydasan, mo'jiza...". Qissa va hikoyalar. – Toshkent: "G'afur G'ulom"–2019-y. 158-b

⁸³ Yuqoridagi manba. 159-b.

⁸⁴ Arastu. Poetika. Ritorika. Toshkent–2011, 40-b.

tabiiy. Bunaqalar hayotda doim mansab pillapoyalaridan osonlik bilan ko'tarilishini hikoya davomida bilib olamiz:

“...Kechagina ko'rdim: to'lishgan, po'rim kiyingan Mo'minboy aka davlat raqamli yangi “Neksiya”ning orqasida savlat to'kib ketyapti. Aftidan, yana ko'tarilganga o'xshaydi”.⁸⁵

Ha, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas! Chunki Mo'minboyning xarakteri asar boshida yetarlicha tasvirlanadi. O'zining manfaati uchun har narsaga tayyor kimsalarning hamisha “oshig'i olchi” bo'lganligini ko'p guvohi bo'lganmiz. Bu hma shulardan biri. Lekin... lekin, muallif Mo'minboy shaxsiyatiga keyinchalik batafsil to'xtab o'tirmaydi. Chunki endi ikkovlari ikki dunyo. Balkim, Mo'minboy ham tunlari bedor qiladigan iztiroblar talayginadir? Qanchadan qancha javobsiz savollar uni ham qiynab, haqiqat oldida yuzma-yuz kelishdan u ham qo'rqar? Ibroyim aka va muallifga nisbatan qilgan adolatsizliklarini eslab, uzun tunlari u ham iztirob chekar, balki? Ammo, bu tomon bizga mavhum.

Xulosa.

Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida davr va inson muammosi, davrning inson xarakteriga ta'siri va yozuvchining barqaror xarakterlar yaratish borasidagi mahorati ochib berilgan. Abduqayum Yo'ldoshev yaratgan xarakterlarni tushunish uchun uning birgina hikoyasini o'qib chiqish kifoya qilmaydi, negaki, bir asarida yaratgan obraz, xarakter boshqa bir asarida yaratilgan obraz va xarakterning mantiqiy davomidek tuyuladi.

ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Poetika. Ritorika. Toshkent-2011.
2. Фитрат А. “Адабиёт қоидалари”. Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт хаваслилари учун. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995.
3. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
4. Салаев Ф., Қурбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
5. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T: “O'zbekiston”. 2002-y.
6. М.Абдурахмонова, “Рухий дунё тасвири”- “Ўзбекистон” нашриёти, Тошкент – 1977.
7. Султон И.. Адабиёт назарияси. Тошкент, “Ўқитувчи” – 1986-й.
8. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. Дарслик. Т., “Шарқ”-2002.

⁸⁵ А. Yo'ldoshev. “Qaydasan, mo'jiza...”. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: “G'afur G'ulom”-2019-y .159-b

9. Yo'ldoshev A. "Mashaqqatlar osha yulduzlar sari". Hikoyalar. Toshkent- "Yangi asr avlodi" - 2021.

10. Yo'ldoshev A. "Qaydasan, mo'jiza...". Qissa va hikoyalar. - Toshkent: "G'afur G'ulom" -2019-y